
O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri A. N. Aripov Sux tumaniga tashrif buyurdi



O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri A. N. Aripov Sux tumaniga tashrif buyurdi

Xabar berganimizdek, kecha O'zbekiston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikalari chegarasida joylashgan Chashma qishlog'ining chashma bulog'i oldida ikki davlat fuqarolari o'rtasida katta jandal chiqqan. Vujudga kelgan toshbo'ron natijasida ko'p kishi tan jarohati olib, shifoxonaga yotqizilgan.

Vaziyatni o'rganish maqsadida kecha Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoevning topshirig'iga asosan, Sux tumaniga O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri A. N. Aripov tashrif buyurdi. Bugun ertalab A. N. Aripov Sux tumani markaziy shifoxonasiga borib, bemorlar va jarohat olganlar holidan xabar oldi. Og'ir ahvoldagi yaralaganlarni viloyat markaziy shifoxonalariga yetkazish uchun sanaviatsiya xizmati tumanga safarbar etildi.



Kunning birinchi yarmida O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri Abdulla Aripov Qirg'iziston Respublikasi bosh vazirining birinchi o'rinbosari Kubatbek Boronov bilan Botken viloyatidagi «Chechme-Avtodorojniy» nazorat-o'tkazish punktida uchrashdi. Uchrashuvda DXX raisi Abdusalom Azizov va Farg'ona viloyati hokimi Shuhrat G'aniev ham ishtirok etdi. Uchrashuv chog'ida kecha ikki mamlakatning chegaradosh qishloqlari aholisi o'rtasida yuz bergan mojaro muhokama qilindi.

Tomonlar davlat chegarasining O'zbekiston-Qirg'iziston qismida sodir bo'lgan voqeadan afsusda ekanini bildirib, vaziyatni to'g'rilash, uning yanada keskinlashishiga yo'l qo'ymaslik va chegara hududlaridagi holatni yumshatish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rishga chaqirishdi.

Ikki davlatning ilgari erishilgan kelishuvlarga sodiqligi va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishga konstruktiv yondashuvi alohida qayd etilgani aytili.

Shuningdek, O'zbekiston bosh vaziri Abdulla Aripov va Qirg'iziston bosh vazirining birinchi o'rinbosari Kubatbek Boronov ikki tomonlama hamkorlik va boshqa dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar.



Shundan so'ng, ikki mamlakat vakillari voqea sodir bo'lgan joyga tashrif buyurishdi. Janjal natijasida O'zbekiston Respublikasi hududidagi uchta xonadonda yong'in kelib chiqqan. "Zarar ko'rgan oilalar xonadonlarini qisqa muddatda tiklab beramiz" - dedi Abdulla Aripov. - Chashma bulog'i bu mo'jiza, insonlarga Yaratgan Egam tomonidan berilgan ne'mat. Shuning uchun, bu muqaddas chashmadan ham bizning fuqarolar, ham qo'shni respublika fuqarolari birdek foydalanishadi.

3 / 6

Kelishuvga binoan, chashma bulog'ining atrofi panjara bilan ihotalanib, uning hududida zamonaviy dam olish maskani barpo etiladigan bo'ldi.



So'ngra «Chechme-Avtodorojniy» nazorat-o'tkazish punktida ikki davlat fuqarolarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvga A. Aripov va K. Boronovlar boshchilik qilishdi. Uchrashuvda ikki xalq va millatning do'stligi, o'zaro hamjihatlik rishtalari asrlarga tatigulik ekanligi qayd etildi.

“Bizning do'stligimiz ming yillardan sarchashma oladi. Bizning bozorimiz ham, mozorimiz ~~446~~ bir. Bo'lib o'tgan voqealardan zaruriy xulosa chiqarib, do'stligimizni mustahkamlashga albatta erishamiz” - deyishdi ikki xalq namoyondalari.

O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri Abdulla Aripov qo'shni respublika vakillari bilan o'zaro muzokaralardan keyin mahalliy aholi vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi.



Uchrashuvda Sux tumani aholisi A. Aripovga ularni qiynayotgan muammo va kamchiliklar haqida gapirib, ularning yechilishida amaliy yordam ko'rsatishni talab qilishdi. O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri A. N. Aripov tashabbusi bilan yaqin kunlarda tumanda obodonchilik ishlari olib boshlanishi ma'lum bo'ldi. Obodonchilik ishlariga 1 000 nafar yoshlar jalb etilishi ta'kidlandi. Qo'shni respublika bilan kelishilgan holda yaylovlardan foydalanish, suv muammosini hal etish, tumanda joylashgan Qayroq,

Javpaya, Toyon massivlarini o'zlashtirish va shu yo'l bilan aholi o'rtasida ishsizlik muammosini hal etilishiga erishish ham qayd etildi. Mahalliy aholini qiynayotgan eng asosiy masala - yo'l muammosi ham o'rta tashlandi. Sux - Rishton yo'li ham ikki davlat hukumatining o'zaro kelishuviga binoan ochilishi ham ta'kidlanib o'tildi. Sux tumaniga koridor ochib berish masalasi ham uchrashuv davomida ko'rib chiqildi. Shuningdek, ikki davlat o'rtasidagi hal etilmagan hududlar bo'yicha ham delimitatsiya va demarkatsiya ishlari bir vaqtda amalga oshirilishi alohida aytib o'tildi. Koronavirus pandemiyasi tufayli Farg'onada qolgan 300 nafardan Suxlik fuqarolarning Sux tumaniga olib kelinishi ham uchrashuv davomida A. Aripov tomonidan ta'kidlandi. Ma'lumot o'rnida: Sux tumaniga turli yumushlar bilan viloyatimizning boshqa shahar va tumanlardan kelgan 110 nafar fuqarolar qolib ketishgan.

